

O‘ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA OTLARNING KELISHIK KATEGORIYALARINING QIYOSIY TADQIQI

Usanova Qademay Muratbay qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Turkiy tillar fakulteti o‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili yo‘nalishi 1-bosqich talabasi.

Ilmiy rahbar: f.f.n.,dots. **M. Xudayarova**

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek, rus va qoraqalpoq tillaridagi otlarning kelishik kategoriyasi, tvoritelniy va predlojniy kelishigini qiyoslash, o‘zbek va qoraqalpoq tillarida ma’nosi, o‘xshash va farqli tomonlari tadqiq etildi.

Kalit so‘zlar: Tvoritelniy kelishik, predlojniy kelishik, old ko‘makchilar, tarjima, harakat, konstruktsiya.

Abstract. In this article, the agreement category of nouns in Uzbek, Russian and Karakalpak languages, the comparison of the agreement of tvoritelny and predlozhny, the meaning, similarities and differences in Uzbek and Karakalpak languages were studied.

Keywords: Tvoritelny padezh, predlozhny padezh, Front supporters, translation, movement, construction.

O‘zbek, rus va qoraqalpoq tillarida ot predmet ma’nosini bildiradi. Har 3 tilda ham otning ma’nosi turli-tuman bo‘lib, u jonli predmetlarni (*it-собака-iyt, mushuk-кошка-pishiq*) (*bola-ребёнок-bala, qush-птица-qus*), narsa, predmet va hodisalarni (*sut-молоко-su’t*), (*yomg‘ir-дождь-jawin*), (*daftar-тепедь-da’pter, kitob-книга-kitap*), (*majlis-собрание-jynalis*) ataydi.

Ot (yoki otlashgan so‘zning) boshqa so‘zlarga bo‘lgan sintaktik munosabatini ko‘rsatuvchi ma’nolar va bu ma’nolarni ifodalovchi shakllar tizimiga kelishik kategoriyasi deyiladi. Kelishik kategoriyasi oltitda grammatik ma’no va uni ifoda etuvchi shakllarni o‘z ichiga oladi. Bularga bosh, qaratqich, tushum, jo‘nalish, o‘rinpayt va chiqish kelishiklarining grammatik ma’nolari hamda bu grammatik ma’noni ifodalovchi -ning, -ni, -ga(-ka, -qa), -da, -dan kelishik shakllari kiradi. Har bir kelishik o‘z nomi, ifoda shakliga ega, ma’lum so‘roqlarga javob beradi⁴⁰.

⁴⁰ Hamroyev M. va boshqalar. Ona tili. – Toshkent, 2007. - B. 87-88.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, rus tilidagi tvoritelniy va predlojniy kelishik o'zbek va qoraqalpoq tillarida yo'q. Hozir biz bu kelishiklarning qanday qo'llanishi, ma'nolari va qanday ifodalanishlarini ko'rib chiqamiz.

O'zbek va qoraqalpoq tillarida tvoritelniy kelishik yo'q. Tvoritelniy kelishikning ma'nosi bunday kelishikdagi so'zni boshqarib keladigan fe'llarning semantikasiga bog'liq⁴¹.

1. Harakatni boshqarishda vosita, qurol bo'lgan predmetni bildiradi, bunday ma'noni o'zbek tilida bilan, qoraqalpoq tilida menen ko'makchisi beradi. Masalan: *Нужно писать карандашом.* – *Qalam bilan yozish kerak.* – *Qa'lem menen jaziw gerek.*

2. Majhul konstruksiyada esa harakatning bajaruvchisini anglatadigan so'z tvoritelniy kelishikda bo'ladi⁴². O'zbek tilida bunday konstruksiyaga tomonidan, qoraqalpoq tilida esa *ta'repinen* so'zi bilan tuziladigan passiv konstruksiya to'g'ri keladi. Masalan: *Это картина написано известным художником.* – *Bu rasm mashhur rassom tomonidan solingan.* – *Bul su'wret ataqli su'wretshi ta'repinen saling'an.*

O'zbek va qoraqalpoq tilida bunday hollarda ko'pincha aniq konstruksiya ishlatiladi. Masalan: *Комнатка было плохо освещена свечой.* – *Sham xonachani xira yoritardi.* – *Sha'm xanani azg'antay jariq qilaturg'in edi.*

3. *Быть, стать, работать, назначить* kabi fe'llar bilan bog'lanib kelgan ot tvoritelniy kelishikda keladi⁴³. O'zbek tilida bu ma'no *bo'lmoq, etmoq, qilmoq*, qoraqalpoq tilida esa *boliw, etiw, qiliw* kabi yordamchi fe'llarining bosh kelishikdagi ot bilan birikishi orqali ifodalanadi. Masalan: *Чехов был врачом, но не считал медицину своим главным делом.* – *Chexov vrach edi, lekin meditsinani o'zining asosiy ishi deb hisoblamagan.* – *Chexov vrach edi, biraq ol medicinani o'zinin'tiykarg'i jumisi deb esaplamag'an.* *Мой брат стал лётчиком.* – *Akam uchuvchi bo'ldi.* – *Ajag'am ushiwshi boldi.* *Мой отец работает председателем колхоза.* – *Otam kolhoz raisi bo'lib ishlaydi.* – *A'kem kolhoz baslig'i bolip isleydi.* *Учитель математики назначен директором школы.* – *Matematika o'qituvchisi maktab direktori qilib tayinlandi.* – *Matematika oqituvchisi mektep direktori boldi.*

4. Tvoritelniy kelishik *перед, над, под, за, с, между* kabi old ko'makchilari bilan ishlatiladi⁴⁴. Bunday ishlatilishlar o'zbekcha va qoraqalpoqchaga turlicha tarjima qilinadi. Masalan: *Перед законом все равны.* – *Qonun oldida hamma baravar.* – *Nizam aldinda ha'tme ten'. Все человечество преклоняется перед талантом*

⁴¹ Azizov O. va boshqalar. O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi Toshkent, 1965. – B. 35.

⁴² O'sha asar. - B. 36.

⁴³ Azizov O. va boshqalar. O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi Toshkent, 1965. – B. 36.

⁴⁴ O'sha asar. - B. 36.

Л.Н. Толстого. – Butun insoniyat L.N. Tolstoyning talanti oldida bosh egadi. – Pu‘tkil insaniyat L.N. Tolstoydin‘ talanti aldinda bas iyedi.

O‘zbek va qoraqalpoq tilida predlojniy kelishik yo‘q. Rus tilining bu kelishigi doim *о, об, в(во), на, при, по* kabi old ko‘makchilaridan biri bilan ishlatiladi.

1. *О (об, обо)* old ko‘makchisi bilan kelganda biror shaxs yoki predmet haqidagi fikr, mulohazani bildiradi. O‘zbek tilida bu ma‘no belgisiz qaratqich kelishigidagi so‘zni **haqida, to‘g‘risida** so‘zlari bilan, qoraqalpoq tilida esa ko‘p hollarda **haqqinda** so‘zlari bilan birga keltirish orqali ifodalanadi. Masalan: *Студенты слушали лекцию о творчестве великого русского поэта А.С. Пушкина. – Talabalar ulug‘ rus shoiri A.S. Pushkin ijodi haqida ma‘ruza eshitar edilar. – Studentler ulli rus shayiri A.S.Pushkin do‘retiwshiligi haqqinda lekciya esiter edi.*

2. *в, на* old ko‘makchilari bilan kelganda, o‘rinni, vaqtni ifodalaydi. Bu old ko‘makchilari bilan kelgan ot o‘zbek tilida o‘rin-payt kelishigi bilan, ba‘zan chiqish kelishigi bilan beriladi. Qoraqalpoq tilida ham shunday, ya‘ni old ko‘makchilari bilan kelgan ot orin (o‘rin-payt) kelishigi, ba‘zi hollarda esa shig‘is (chiqish) kelishigi bilan beriladi. Masalan: *Мои родители работают в колхозе, а старший брат служит в армии, сестра учится в школе, а старшая сестра работает на фабрике. – Ota-onam kolxozda ishlaydi, akam armiyada xizmat qiladi, singlim maktabda o‘qiydi, opam esa fabrikada ishlaydi. – Ata-anam kolxozda isleydi, ajag‘am armiyada xizmet etedi, sin‘lim mektepte oqiydi, ajaram bolsa fabrikada isleydi.*

3. *При* old ko‘makchisi bilan kelgan predlojniy kelishikdagi ot vaqt, holatni ifodalaydi.

O‘zbek tilida asosan, o‘rin-payt kelishigi orqali yoki belgisiz qaratqich kelishigidagi so‘zni oldida, vaqtida so‘zlari bilan birgalikda keltirish, ba‘zan esa bilan ko‘makchisi orqali beriladi.

Qoraqalpoq tilida ham o‘zbek tilidagidek, asosan orin (o‘rin-payt) kelishigi orqali yoki belgisiz iyelik (qaratqich) kelishigidagi so‘zdan oldin, aldinda, vaqtinda so‘zlari bilan birgalikda, ba‘zi hollarda esa menen ko‘makchisi orqali beriladi. Masalan: *Трудно работать при сильном ветру. – Qattiq shamol vaqtida ishlash qiyin. – Qatti samal vaqtinda islew qiyin.*

При old ko‘makchisi bilan kelgan predlojniy kelishik qaramog‘idalik ma‘nosini ham ifodalab keladi. Bunday so‘zlar o‘zbek tilida belgisiz qaratqich kelishigidagi so‘zni qoshida, qaramog‘ida, huzurida so‘zlari, qoraqalpoq tilida esa ko‘pincha hollarda iyelik (qaratqich) kelishidagi so‘zni qasinda, qaramag‘inda so‘zlari bilan ifodalanadi. Masalan: *При заводе есть большая библиотека. – Zavod qoshida katta kutubxona bor. – Zavodtin‘ qasinda u‘lken kitapxana bar.*

4. *По* old ko‘makchisi bilan kelgan predlojniy kelishik muddat ma‘nosini bildiradi. O‘zbek va qoraqalpoq tillarida bunday ma‘no ko‘pincha chiqish kelishigidagi

oʻtgan zamon sifatdoshiga keyin koʻmakchisini biriktirib yoki harakat nomiga bilan soʻzini biriktirib ifodalanadi. Masalan: *По окончании школы я буду работать.* – *Men maktabni bitirganimdan keyin ishlayman.* – *Men mektepti pitkergenimnen keyin jumis isleymen.*

Xulosa qilib shuni aytishimiz joizki, rus tilidagi tvoritelniy va predlojniy kelishiklar oʻzbek va qoraqalpoq tillarida yoʻq. Tvoritelniy kelishik yordamchi feʼllar yoki old koʻmakchilarga ot qoʻshish natijasida hosil boʻladi. Oʻzbek va qoraqalpoq tillarida bu kelishik oʻrniga old koʻmakchilar, yordamchi feʼllar orqali bildiriladi. Tvoritelniy kelishik *перед, над, под, за, с, между* kabi old koʻmakchilari bilan ishlatilganda oʻzbek yoki qoraqalpoq tillariga tarjima qilganda maʼnolari turlicha boʻlib ketishi mumkin. Rus tilidagi predlojniy kelishigi doim *о, об, в(во), на, при, по* kabi old koʻmakchilaridan biri bilan ishlatiladi. Bu old koʻmakchilar turlicha maʼnolarni bildirib keladi. Oʻzbek va qoraqalpoq tillarida esa oʻrin-payt, chiqish, va belgisiz qaratqich kelishigidagi soʻzlarga yordamchi soʻzlarni qoʻshish orqali hosil qilinadi. Bu oʻz navbatida tilni qiyoslab oʻrganishda nafaqat boshqa millat vakillari, balki, oʻzimiz uchun ham maʼlum qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizov O va boshqalar Oʻzbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi Toshkent: “Oʻqituvchi” nashriyoti.1965.
2. Hamroyev M va boshqalar. Ona tili . – Toshkent: “Iqtisod-moliya” nashriyoti. 2007 .